



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **27,9** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **8,4** mingtaga kamaygan yoki **76,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **7,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-dekabrida **5,9** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **69,3 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

5,8 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
1623

19,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
5311

36,6 %
Savdo
10228


9,1 %

Qurilish
2540

13,3 %

Sanoat
3730

2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
6813	Qarshi sh.	5506
1953	Shahrisabz sh.	1630
1922	G'uzor	1382
1664	Dehqonobod	1127
2594	Qamashi	1833
2594	Qarshi	2038
3003	Koson	2007
2720	Kitob	1949
1509	Mirishkor	1198
1161	Muborak	945
1651	Nishon	1461
1677	Kasbi	1365
1048	Ko'kdala	762
2038	Chiroqchi	1401
1574	Shahrisabz	1416
2500	Yakkabog'	1960

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **27980** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5922** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **5506** tani yoki jamiga nisbatan **19,7 %** ni tashkil etdi.


1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

36421

2023- y.

27980


2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Mirishkor	19,5
Qarshi sh.	18,8
Muborak	15,8
Nishon	15,6
Koson	12,9
Qarshi	11,6
Kitob	11,4
Shahrisabz sh.	11,3
Dehqonobod	10,7
Yakkabog'	10,3
Shahrisabz	9,8
Kasbi	9,7
G'uzor	9,5
Ko'kdala	9,4
Qamashi	8,4
Chiroqchi	8,2



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soninining har 1000 aholiga nisbatli 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **11,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **3,8** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida **19,5** birlik, Qarshi shahrida **18,8** birlik, Muborak tumanida **15,8** birlik, Nishon tumanida **15,6** birlik va Koson tumanida **12,9** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



Mirishkor tumani
– 19,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida **19,5** birlik, Qarshi shahrida **18,8** birlik, Muborak tumanida **15,8** birlik, Nishon tumanida **15,6** birlik, Koson tumanida **12,9** birlik, Qarshi tumanida **11,6** birlik, Kitob tumanida **11,4** birlik, Shahrисабз shahrida **11,3** birlik, Dehqonobod **10,7** birlik va Yakkabog' tumanida **10,3** birlik kuzatildi.

O'rta ko'rsatkich




Dehqonobod tumani
– 10,7 birlik.



Eng past ko'rsatkich




Chiroqchi tumani
– 8,2 birlik.




Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda


Mirishkor tumani



Muborak tumani



Koson tumani



18,8

15,8

15,6

12,9

Qarshi shahri

Nishon tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

1 219	Qarshi sh.	918
458	Shahrisabz sh.	267
547	G’uzor	350
443	Dehqonobod	258
600	Qamashi	293
541	Qarshi	498
653	Koson	481
638	Kitob	383
412	Mirishkor	277
257	Muborak	196
379	Nishon	337
458	Kasbi	378
272	Ko’kdala	232
444	Chiroqchi	251
535	Shahrisabz	357
695	Yakkabog'	446


2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qarshi shahri – **15,3** %, Qarshi tumani – **8,4** %, Koson tumani – **8,1** %, Yakkabog’ tumani – **7,5** %, Kitob tumani – **6,5** %, Kasbi tumani-**6,4** %, Shahrisabz tumani – **6,0** %, G’uzor tumani – **5,9** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1980** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **1540** ta hamda sanoatda **909** ta yangidan tashkil etilgan.

Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Qarshi shahrida **917** ta, Qarshi tumanida **498** ta, Koson tumanida **481** ta hamda Yakkabog‘ tumanida **446** ta yangidan tashkil etilgan.


2022- y. 2023- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabri oylari davomida jami **34832** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **12122** (yoki **34,8** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -**8753** (yoki **25,1** %) ta, sanoat sohasida – **5941** (yoki **17,1** %) ta, xizmatlar sohasida – **6086** (yoki **17,5** %) ta va qurilish sohasida – **1930** (yoki **5,5** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyekt-larining ulushi **68,4** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,9** punktga ko‘aygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da





2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **98,1** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **96,9** % ni, chakana savdoda **95,7** % ni, yo‘lovchi tashishda **91,2** % ni, yuk aylanmasida **78,7** % ni, qurlilishda **73,8** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati






Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6331,2** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**1140,8** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**595,4** mlrd. so‘m), Qarshi (**504,4** mlrd. so‘m), va Kasbi (**449,7** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Ko‘kdala tumanida (**148,7** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 22,4 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Ko'kdala		100,0
Shahrisabz sh.		87,7
Chiroqchi		71,2
Shahrisabz		59,0
Mirishkor		55,3
Muborak		43,5
Qamashi		39,8
Koson		35,2
Yakkabog'		34,3
Kitob		31,0
Qarshi sh.		30,2
Kasbi		27,6
Qarshi		24,6
Dehqonobod		18,1
G'uzor		6,5
Nishon		2,2

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (**100,0 %**), Shahrisabz shahri (**87,7 %**), Chiroqchi tumani (**71,2 %**), Shahrisabz tumani (**59,0 %**), Mirishkor tumani (**55,3 %**), Muborak tumani (**43,5 %**), Qamashi tumani (**39,8 %**), Koson tumani (**35,2 %**), Yakkabog' tumani (**34,3 %**), va Kitob tumani (**31,0 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Ko'kdala	30,8	100,0
Nishon	157,4	84,9
Dehqonobod	182,8	100,0
Mirishkor	191,2	100,0
Qamashi	265,6	100,0
Shahrisabz sh.	273,2	54,5
Muborak	286,1	36,8
Shahrisabz	301,7	99,7
Kasbi	336,9	100,0
Yakkabog'	380,3	93,7
Kitob	435,5	97,7
Koson	476,9	93,7
Chiroqchi	485,1	57,4
G'uzor	520,6	57,4
Qarshi	629,4	97,1
Qarshi sh.	1 867,5	68,9


hajmi, mlrd. so'mda ↑
ulushi, % da ↑

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6821,0** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiylajmining **73,8** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **109,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (**1867,5** mlrd. so'm), Qarshi (**629,4** mlrd. so'm), G'uzor (**520,6** mlrd. so'm), Chiroqchi (**485,1** mlrd. so'm), Koson (**476,9** mlrd. so'm), Kitob (**435,5** mlrd. so'm) hamda Yakkabog' (**380,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9083,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **41,9 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **188,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nishon tumani (**2324,6** mlrd. so'm), Qarshi shahri (**1251,1** mlrd. so'm), Muborak tumani (**994,5** mlrd. so'm), Chiroqchi tumani (**540,4** mlrd. so'm), Qarshi tumani (**525,5** mlrd. so'm), Kitob tumani (**512,7** mlrd. so'm), G'uzor tumani (**464,8** mlrd. so'm), Koson tumani (**382,4** mlrd. so'm) hamda Shahrисabz (**372,8** mlrd. so'm) shaharlarda qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Qarshi sh.	1 251,1
Shahrisabz sh.	372,8
G'uzor	84,8
Dehqonobod	464,8
Qamashi	17,3
Qarshi	221,2
Koson	66,8
Kitob	525,5
Mirishkor	66,2
Muborak	330,3
Nishon	61,0
Kasbi	512,7
Ko'kdala	251,0
Chiroqchi	69,9
Shahrisabz	994,5
Yakkabog'	22,6
	2 324,6
	300,2
	100,8
	540,4
	123,3
	331,8
	36,8
	75,3

■ ulushi, % ■ hajmi, mlrd. so'm

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **39415,8** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,1** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **104,6** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Koson (**3728,8** mld. so‘m), Kasbi (**3533,7** mld. so‘m), Kitob (**3519,3** mld. so‘m), Qamashi (**3390,2** mld. so‘m), Qarshi (**3059,7** mld. so‘m) hamda Nishon (**2923,5** mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	2856,2	98,9
Shahrisabz	2552,4	98,8
Chiroqchi	2641,7	99,6
Ko‘kdala	2160,2	99,5
Kasbi	3533,7	94,8
Nishon	2923,5	92,5
Muborak	1862,2	97,2
Mirishkor	2605,5	98,5
Kitob	3519,3	99,1
Koson	3728,8	99,8
Qarshi	3059,7	99,4
Qamashi	3390,2	99,5
Dehqonobod	1552,7	99,0
G‘uzor	2434,6	98,7
Shahrisabz sh.	315,4	99,6
Qarshi sh.	279,9	93,1

hajmi, mld. so‘mda ulushi, % da

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **20613,0** mlrd. so‘mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **95,7** % ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **107,8** % ni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Muborak	542,7	91,6
Ko'kdala	650,8	95,3
Shaxrisabz	653,9	88,0
Dehqonobod	694,7	99,1
Mirishkor	762,4	99,3
Qarshi	816,6	98,4
Nishon	824,3	99,2
G'uzor	846,0	97,1
Kasbi	865,5	95,9
Kitob	1 102,0	98,6
Yakkabog'	1 155,0	99,0
Qamashi	1 540,8	99,1
Koson	1 661,6	94,6
Chiroqchi	1 722,4	97,5
Shahrisabz sh.	1 762,7	98,6
Qarshi sh.	5 011,8	91,5

hajmi, mld. so‘mda ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**5011,8** mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (**1762,7** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**1722,4** mlrd. so‘m), Koson (**1661,6** mlrd. so‘m), Qamashi (**1540,8** mlrd. so‘m), Yakkabog’ (**1155,0** mlrd. so‘m), Kitob (**1102,0** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda

Qarshi sh.	2358,5
Kitob	1114,4
Koson	1026,7
Qarshi	1033,8
Qamashi	974,6
Muborak	801,2
Mirishkor	755,1
Yakkabog‘	750,9
Kasbi	680,8
Shahrisabz sh.	610,8
G‘uzor	572,6
Nishon	615,8
Chiroqchi	541,8
Shahrisabz	519,6
Dehqonobod	473,3
Ko‘kdala	238,8

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **13068,7** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **67,0 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **109,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**2358,5** mlrd. so‘m), Kitob tumani (**1114,4** mlrd. so‘m), Koson tumani (**1026,7** mlrd. so‘m), Qarshi tumani (**1033,8** mlrd. so‘m), Qamashi tumani (**974,6** mlrd. so‘m), Muborak tumani (**801,2** mlrd. so‘m), Mirishkor tumani (**755,1** mlrd. so‘m) va Yakkabog‘ (**750,9** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari (yanvar-dekabr oylarida)

5586,6	Savdo xizmatlari	42,7
3896,3	Transport xizmatlari	29,8
682,6	Shaxsiy xizmatlar	5,2
650,6	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	5,0
608,6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,7
455,8	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,5
405,7	Ijara xizmatlari	3,1
242,9	Boshqa xizmatlar	1,9
179,1	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
125,1	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,9
111,5	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	0,8
63,4	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,5
60,4	Moliyaviy xizmatlar	0,5

Hajmi, mlrd. so‘mda



Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **-42,7 %** (**5586,6** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida **-29,8 %** (**3896,3** mlrd. so‘m), shaxsiy xizmatlarda **-5,2 %** (**682,6** mlrd. so‘m) hamda Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarida **-5,0 %** (**650,6** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,5 %** (**60,4** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yakkabog'	3244,0	35,7
Shaxrisabz	6111,1	65,5
Chiroqchi	2599,0	29,8
Ko'kdala	7348,8	100,0
Kasbi	8553,7	8,2
Nishon	292,8	0,3
Muborak	3360,4	63,2
Mirishkor	5744,8	70,3
Kitob	9686,0	99,9
Koson	8426,0	23,0
Qarshi	3849,7	5,1
Qamashi	5813,9	49,4
Dehqonobod	8578,6	100,0
G'uzor	6768,9	73,5
Shahrisabz sh.	3483,3	95,8
Qarshi sh.	10677,1	48,6

hajmi, ming. AQSH dollar
ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **94,6** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **22,2** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ko'kdala tumanida – **100,0** %, Dehqonobod tumanida – **100,0** %, Kitob tumanida – **99,9** %, Shahrisabz shahrida – **95,8** %, G'uzor tumanida – **73,5** %, Mirishkor tumanida – **70,3** %, Shahrisabz tumanida – **65,5** % Muborak tumanida – **63,2** % va Qamashi tumanida – **49,4** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **0,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **228,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **73,8 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Ko'kdala tumanida – **100 %**, Qarshi shahrida – **96,2 %**, Shahrисабз tumanida – **92,1 %**, Koson tumanida – **88,6 %**, Shahrисабз shahrida – **87,4 %**, Chiroqchi tumanida – **79,1 %** hamda Yakkabog' tumanida – **70,9 %** ni tashkil etdi.

Ko'kdala	100,0
Qarshi sh.	96,2
Shaxrisabz	92,1
Koson	88,6
Shahrisabz sh.	87,4
Chiroqchi	79,1
Yakkabog'	70,9
Nishon	68,3
Muborak	63,6
Kitob	58,3
Mirishkor	49,5
Qamashi	38,2
Dehqonobod	25,8
Qarshi	22,4
G'uzor	21,8
Kasbi	15,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati



2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,6** % ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,6** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **78,7** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,6** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,2** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,9** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil IV- chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1192** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **698 (58,6 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **376 (31,5 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **118 (9,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,3 % (469 ta)**, xizmatlar sohasida - **27,1 % (323 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **12,7 % (151 ta)** sanoatda – **11,1 % (132 ta)**, qurilishda – **9,8 % (117 ta)**, ni tashkil etdi.

2023- yil IV- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV- chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

272	Qarshi sh.	22,8
92	Shahrisabz sh.	7,7
51	G’uzor	4,3
50	Dehqonobod	4,2
63	Qamashi	5,3
81	Qarshi	6,8
68	Koson	5,6
91	Kitob	7,6
34	Mirishkor	2,9
49	Muborak	4,1
61	Nishon	5,1
47	Kasbi	3,9
18	Ko’kdala	1,5
66	Chiroqchi	5,5
66	Shahrisabz	5,5
83	Yakkabog'	7,0


Hajmi, mlrd. so‘mda

Ulushi, foizda

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (**272** ta), Shahrisabz shahri (**92** ta), Kitob (**91** ta), Yakkabog’ (**83** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragi uchun umumiyligi iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning IV- choragida **401** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV- choragiga kelib esa **698** taga yetgan yoki 2018- yilning IV- choragiga nisbatan **297** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **367** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **376** ta yoki **9** taga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **77** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **118** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **41** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yaxshilanish

o‘zgarishsiz

yomonlashish


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning IV- choragida **394** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning IV- choragiga kelib esa **696** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **302** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning IV- choragida **366** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning IV- choragida **289** ta yoki **77** taga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilning IV- choragida **74** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning IV- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **99** tani tashkil etib, **25** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV- choragida **47,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa **58,6** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **11,1** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **43,4** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning IV- choragida **31,5** % yoki **11,9** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **9,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **9,9** % ga yetgan yoki **0,8** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV- choragida **47,2** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa **64,2** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV- choragida nisbatan **17,0** % birlik ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2018- yilning IV- choragida **43,9** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **26,7** % yoki **17,2** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2018- yilning IV- choragida **8,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning IV- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **9,1** % yoki **0,2** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash,
% da**



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning IV- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **40,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **28,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **11,2 %** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **41,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **23,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **28,0 %** ni, savdoda – **25,4 %** ni, sanoatda – **21,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – **40,5** % ni, xizmatlar sohasida – **26,7** % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **11,7** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi savdoda – **39,4** % ni, xizmatlar sohasida – **28,2** % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **13,5** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **28,2** % ni, savdoda – **25,4** % ni, sanoatda – **21,1** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	63,4	27,2	9,4
Band bo'lganlar soni	51,8	40,7	7,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	60,8	31,6	7,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	55,4	36,7	7,9
Raqobat muhiti	63,6	29,5	6,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	68,3	26,3	5,5
Band bo'lganlar soni	56,7	37,8	5,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	64,2	30,4	5,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	59,6	34,6	5,9
Raqobat muhiti	68	27,4	4,6

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2023- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli